

**ChIRChIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**QURBONOVA MAFTUNA FAXRIDDINOVNA**

**IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDA ZAMONAVIY TA'LIMY  
YONDASHUVLARNI PEDAGOGIK QADRIYATLAR ASOSIDA  
RIVOJLANTIRISH (o'zbek tili va adabiyoti o'qitish metodikasi misolida)**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2024**

**Pedagogika fanlari doktori (DSc)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктор  
педагогических наук (DSc)**

**Contents of dissertation abstract of the doctor  
pedagogical sciences (DSc)**

**Qurbonova Maftuna Faxriddinovna**

Ixtisoslashtirilgan maktablarda zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida rivojlantirish (o'zbek tili va adabiyoti o'qitish metodikasi misolida).....

**Курбанова Мафтуна Фахриддиновна**

Разработка современных образовательных подходов в профессиональных школах на основе педагогических ценностей (на примере методов преподавания узбекского языка и литературы).....

**Kurbanova Maftuna Fakhriddinovna**

The development of modern educational approaches in specialized schools based on pedagogical values (as an example of the methodology of teaching Uzbek language and literature) .....

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**QURBONOVA MAFTUNA FAXRIDDONOVNA**

**IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDA ZAMONAVIY TA'LIMY  
YONDASHUVLARNI PEDAGOGIK QADRIYATLAR ASOSIDA  
RIVOJLANTIRISH (o'zbek tili va adabiyoti o'qitish metodikasi misolida)**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2024.1.DSc/Ped848 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (cspi.uz/uz ilmiy-kengash) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy maslahatchi:</b>	<b>Botirova Shaxlo Isamiddinovna</b> pedagogika fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Matchonov Sapa</b> pedagogika fanlari doktori, professor
	<b>Umurova Go‘zal Xotamovna</b> filologiya fanlari doktori, professor
	<b>Quronov Muhammad</b> pedagogika fanlari doktori, professor
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Qarshi davlat universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «\_\_» \_\_\_\_\_soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 111720, Toshkent viloyati Chirchiq shahri Amir Temur ko‘chasi 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: [chdpu-kengash@umail.uz](mailto:chdpu-kengash@umail.uz)).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati Chirchiq shahri Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712- 45-41).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “\_\_” \_\_\_\_\_ da tarqatildi.  
(2024-yil “\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ - raqamli reestr bayonnomasi).

**U.N.Xodjamkulov**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, p.f.d., dotsent

**F.T.Rajabov**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, g.f.f.d. (PhD), dotsent

**V.B.Fayziyev**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, b.f.d. (DSc), professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitida o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy ta'limiy yondashuvlarga ustuvorlik berilmoqda. Shuningdek, xalqaro ta'lim tajribalaridan kelib chiqib, o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni "4K" – kommunikativ, kritik, kreativ va kollaborativ ko'nikmalar asosida shakllantirishga qaratilgan STEAM ta'lim tizimining ham keng joriy etilishi bu borada yuqori natijaga erishishga zamin yaratmoqda. PISA, PIRLS, TIMMS, TALIS kabi xalqaro baholash dasturlari talablariga kiritilgan "4K" ko'nikmalarini rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bugungi kunda rivojlangan davlatlar tomonidan samarali ekanligi alohida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, o'quvchilarning tayanch kompetensiyalari, Soft Skills, "4K" ko'nikmalarni rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish, mazkur kompetensiyalarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy omillarni aniqlashtirish, pedagogik-dagnostik korreksiyalash faoliyatini tizimli amalga oshirish va o'quvchilarning individual-intellektual qobiliyatlarini shakllantirishga doir metodikalar shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida amalga oshirilmoqda.

Dunyoda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni, kommunikativ, kritik, kreativ, kollaborativ ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik qadriyatlarni tarkib toptirishning metodik ta'minoti hamda innovatsion modellarini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni shaxsga yo'naltirilgan va raqamli resurslar imkoniyatlarini pedagogik qadriyatlarga integratsiyalash orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni, kommunikativ, kritik, kreativ, kollaborativ ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslarini aniqlashtirish bilan bir qatorda metodik jihatdan amaliy yechimini berish, tayanch kompetensiyalar va zamonaviy ko'nikmalarni pedagogik qadriyatlar asosida shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish, akseologik va deontologik yondashuv asosida zamonaviy ko'nikmalarni rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish yanada dolzarblik kasb etadi. Shu bilan birga, o'quvchilarda innovatsion ta'lim sharoitida tayanch kompetensiyalar va zamonaviy ko'nikmalarni rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan va pedagogik qadriyatlarga asoslangan yondashuv asosida ta'lim jarayonini tizimli tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda iqtidorli o'quvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ichki qobiliyatlarini, tayanch kompetensiyalarini zamonaviy ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalarni qo'llagan holda ularni o'qitish va tarbiyalash bo'yicha yaxlit tizim yaratish, iste'dodli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ma'nan yetuk va intellektual

jihtadan barkamol avlodni shakllantirish”<sup>1</sup> mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’limiy islohotlarning muhim takibiy qismi hisoblanadi. Bu borada respublikamizda yangi avlod maktablari sifatida e’tirof etilayotgan ixtisoslashtirilgan maktab o’quvchilarining individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning ichki qobiliyatlarini, tayanch kompetensiyalari va zamonaviy ko’nikmalarini pedagogik qadriyatlar asosida rivojlantirish, ta’lim jarayonlariga SMART, comfort learning, self-study kabi o’qitish modeli va texnologiyalarini joriy etishning metodik tizimini takomillashtirish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF–6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi farmonlari, 2019-yil 20-fevraldagi PQ–4199-son “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-martdagi 141-son “Ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga bog’liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g’oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo’llari” ustuvor yo’nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o’rganilganlik darajasi.** Respublikamiz olimlaridan R.Safarova, U.Musayev, N.Ortiqov, N.M.Egamberdiyeva, S.T.Yuldasheva, Sh.Z.Taylanova, D.R.Salixova, B.Xodjayevev, N.I.Raxmonova, J.Tulenov, Sh.Q.Mardonov tadqiqotlarida qadriyat mazmuni va aksiologik yondashuvlar, o’quvchi tarbiyasida qadriyatning zarurati, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tadqiq etilgan.<sup>2</sup> Xususan; zamonaviy o’qitish texnologiyalari, shaxsga yo’naltirilgan ta’lim, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, ta’limda innovatsion texnologiyalar muammosi G.O.Ernazarova, L.Baqoyeva F.Yusupova, M.Mirzayeva, G.Hasanova, Sh.Nematov R.H.Djurayev, X.I.Ibragimov, O.Musurmonova, N.X.Avliyoqulov, N.N.Musayeva, M.A.Ganiyeva, D.M.Fayzullayeva, R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev, Q.T.Olimov, D.Ro’ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Holiqova, I.Ne’matovlar tomonidan tadqiq etilgan. O’zbek tili va adabiyotini o’qitish metodikasi, til va adabiyot ta’limining

<sup>1</sup> O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ–4199-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

<sup>2</sup> Қ.Назаров.Аксиология. Тошкент.Академия-2011, 20-216; Имомназаров М.Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар.Тошкент.Шарк, 1998 – Б.131.; Ходжыев В.Х. “Pedagogik aksiologiya” o’quv qo’llanma. Т. “Fan va texnologiya”, 2011. - 156 bet.; Маврулов А. Маънавий баркамол инсон тарбияси. – Тошкент: “O’zbekiston”, 2008. – Б. 11-12.; Қурунов М. Ўзбекистон умумтаълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари: пед. фан. докт. ...дис. – Тошкент, 1998. – Б. 363;

integratsiyasi, o'quv jarayonida o'zbek tili va adabiyotining didaktik va metodik imkoniyatlari Safo Matchon, M.Mirqosimova, Q.Yo'ldoshev, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, U.Dolimov, O.Madayev, V.Qodirov, Ye.Abduvalitov, Q.Yusupov, N.Yuldasheva, R.Keldiyorov, M.Tursunova, D.To'xliyeva, D.Quronov, Z.Mirzayevalarning tadqiqot ishlarida o'rganilgan.<sup>3</sup>

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan V.A.Slastyonin, G.I.Chijakova, E.N.Shiyanov, N.E.Shurkova, I.P.Podlasiylar umuminsoniy qadriyatlar, ta'limda tarbiyaning ahamiyatini; A.Glinskiy, L.Gribenyuk, N.Kurbet, N.Nekrasova, V.Medvedev, A.Xutoroskiy kabilar o'quvchilarda tanqidiy, ijodiy fikrlashni shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarning psixologik-pedagogik jihatlari, rivojlantirish mexanizmlarini; O.S.Gazmana, Ye.V.Bondarevskoy, Sh.A.Amonashvili aqliy rivojlanish hamda o'quvchilarning axloqiy qadriyatlari va shaxsiy fazilatlarini shakllantirish masalalarini; tadqiqotlarida; E.V.Bondarevskaya, T.I.Vlasova, T.I.Petrakovalar aksiologik va antropologik yondashuvlar nuqtai nazaridan shaxsning asosiy xususiyatlari ma'naviyat, axloq va insoniylik, tashqi motivatsion soha bilan bog'liqligini, axloqning ijtimoiy jihatlari, xulq-atvor tamoyillari va normalari shaxslarning bir-biriga va jamiyatga munosabatida namoyon bo'lishini o'rganishgan. Shuningdek, ta'limni tashkil etish muammolari, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'limni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish, o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish, xalqaro baholash dasturlari talablarini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish mexanizmlari Ye.M.Boxorskiy, I.V.Komarov, V.A.Bolotov, A.N.Daxin, I.D.Frumin, T.I.Shamov, Yu.Tatur, S.G.Vorovshikov, T.Ye.Xavenson, Yu.D.Kersha, G.S.Kovaleva, E.A.Krasnovskiy, L.P.Krasnokutskaya, K.A.Krasnyanskaya, V.Ya.Stoyunin, V.P.Ostrogorskiy, M.A.Ribnikova, V.V.Golubkov kabi olimlarning tadqiqotlarida yoritilgan.

Xorijlik olimlardan D.S.Ruxen, L.X.Saljanik, J.Valijarvi, M.Uljens, S.T.Hopman, A.Rarrek, E.Verner, G.Brinek, M.Retzl, J.Sachs, P.Sahlberg, H.Niyemi, A.Toom, A.Kallioniyemi, Jakku-Sixvonen, G.Sukermanlarning ilmiy izlanishlarida kompetensiya muammosi, ta'limdagi yangi yondashuvlar, ta'lim

<sup>3</sup>Долимов С., Убайдуллаев Х., Ахмедов Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – 448 б.; Ахмедов Қ. Ҳамза Ҳакимзодининг “Бой ила хизматчи” драмасини ўрганиш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1968.; Маллаев Н.М., Исмаилов С.И. Ўзбек адабиёти тарихи. Ўрта мактабнинг 9-синфи учун дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965.; Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Тошкент, Ўқитувчи, 1996.; Зуннунов А., Ҳотамов Н. Адабиёт назариясидан қўлланма. Ўрта мактабларнинг юқори синфлари учун. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.; Мирқосимова М.М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва тақомиллаштириш усуллари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1995. – 253 б.; Йўлдошев Қ.Б. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 306 б.; Матчонов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1998. – 300 б.; Хусанбоева Қ.П. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 262 б.; Ниёзматова Р.Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганишнинг назарий ва методик асослари (рус гуруҳлари мисолида). Пед. док. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 242 б.; Долимов У. Жадид мактаблар: уларда она тили ва адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий ҳамда амалий асослари. Пед. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 44 б.; Келдиёров Р.А. Адабиёт дарслари самарадорлигини оширишнинг илмий-методик асослари (Ўқитувчи касбий-маънавий фазилатлари асосида). Пед. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2001. – 137 б.; Абдувалитов Е.Б. Умумий ўрта таълим мактабларида қардош халқлар адабиётини қиёсий ўрганиш (таълим ўзбек, қозоқ, қирғиз, қорақалпоқ ва туркман тилларида олиб бориладиган мактабларнинг V–IX синфлари адабиёт дарслари мисолида). Пед. фан. док. (DSc) ... дисс. – Тошкент, 2020. – 252

sifatiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar, ta'lim jarayonini xalqaro baholash dasturi talablari asosida tashkil qilish masalalari o'rganilgan.

Ixtisoslashtirilgan maktablarda o'quv jarayonlariga xalqaro standartlarga muvofiq zamonaviy pedagogik yondashuvlar va raqamli resurslarni integratsiyalash zarurati o'quvchilarda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish, olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishga yo'naltiradigan metodik ishlanmalarni o'rganish muhimligini belgilamoqda. Bu o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalar, muloqot, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi mavjud muammolarni ijobiy yechishga qaratilgan, diagnostik korreksiyalovchi metodik ishlanmalarni yaratishni taqozo etmoqda. Bundan tashqari, pedagogik qadriyatlar asosida ushbu zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, qadriyatlar va axloqiy tamoyillar asosida zamonaviy ko'nikmalarni rivojlantirishning didaktik asosini o'rganish natijasida metodik tizimini takomillashtirish zarurati mazkur dissertatsiya mavzusini belgilab berdi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Chirchiq davlat pedagogika universitetining "Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari" (2017-2022 yy.) mavzusidagi strategik ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi<sup>4</sup>.**

Ta'lim sohasida filologik fanlarni o'qitishni tarixiy, geografik, madaniy, lingvistik va pedagogik qadriyatlar bilan integratsiyalash, o'quvchilarni matnlar ustida ishlashda mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatish, muloqot qilish, zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirish, berilgan topshiriqlar asosida hamkorlikda ishlash, loyihalash faoliyatini shakllantirishning metodik asoslari jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan,, Arizona, Garvard, Michigan (AQSh), Kembrij, Oksford, Edinburg (Buyuk Britaniya, Shotlandiya), Strasburg universiteti (Fransiya), Seul milliy universiteti (Janubiy Koreya), Anqara universiteti, Gazi universiteti, Hacettepe universiteti, Ondokuz Mayis universiteti (OMU) (Turkiya), Moskva davlat pedagogika instituti (Rossiya), M.Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti, L.N.Gumilyov nomidagi Yevroosiyo milliy universiteti (Qozog'iston), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Nizomiy nomidagi Toshkent

---

<sup>4</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida yoritilgan: Arifo'g'ul, S. (2001). The Teaching of Reading Through Short Stories in Advanced Classes || . Unpublished M.A Thesis. – Ankara: Hacettepe University; Brumfit, C.J., & Carter, R.A. (1986). Literature and language teaching. – Oxford: Oxford University Press; Carter, R. & Long, M. (1991). Teaching Literature. – Harlow: Longman; Hill, J. (1989). Using Literature in Language Teaching London. – London: Macmillan; Lazar, G. (1993). Literature and Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press; Parkinson, B. & Thomas, H.R. (2000). Teaching Literature in a Second Language. – Edinburgh: Edinburg University Press; Obediat, M. (1997). "Language Vs Literature In Departments In the Arab World" in English Teaching Forum. Ögeyik, Muhlise C. (2007). Attitudes of the Students in English Language Teaching Programs towards Literature Teaching. Eurasian Journal of Educational Research, 27. – P. 151–162. Ujjwala, K. (2013). English Language Teaching Through Literature. Journal of Golden Research Thoughts, Vol. 2 (11).



davlat pedagogika universiteti (O‘zbekiston) tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Dunyo ta’lim tizimida filologik fanlarni o‘qitishda amaliy topshiriqlar, kundalik vaziyatlardagi real voqealik, pedagogik qadriyatlar bilan uzviy bog‘lash, badiiy va axborot matnlar orqali o‘qitish, jamoaviy o‘rganish, o‘qish uchun motivatsiyani ta’minlash, matnlarda aks ettirilgan umummadaniy va milliy an’analarni targ‘ib qilish, adabiy qahramonlar fazilatlarini shaxsiy sifatlarida aks ettirish, holat va harakatlarning psixologik tavsifi, ta’lim oluvchiga tanish bo‘lgan zamon qahramonlarini tanishtiruvchi matnlar asosida shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini belgilash (AQSh); turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlarning o‘ziga xos turmush tarzi va tafakkur uslubini badiiy matnlar orqali ochib berish strategiyalari, insoniylik va umummadaniyatni rivojlanishiga ta’sir etuvchi o‘rganish omillari (Germaniya); adabiy matnlarga ijodiy yondashish asosida o‘ziga xoslikning ijtimoiy-tarixiy va madaniy kontekstlarini aniqlash, so‘zlardan turli nuqtai nazardan foydalanish, asardan olingan xulosalarni real vaziyatlarga integratsiyalovchi ta’limiy loyiha ishlarini yaratish, ta’lim oluvchi va hayotiy qahramonlar o‘rtasidagi suhbatlar va treninglar metodologiyasini ishlab chiqish (Angliya); mavzu mohiyatini o‘rganish jarayonida muhim elementlarni tahlil qilish, badiiy va axborot matnlarining mazmunini tushunish hamda real vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash, mavzuning til o‘rganish jarayonida muhim element hisoblanishi tahlil qilingan (Turkiya).

Jahonda qadriyat yo‘nalishlarining ta’limiy jihati, pedagogik qadriyatni shakllantirish mexanizmlari va ularni rivojlantirishning metodik imkoniyatlarini filologik fanlarni o‘quv fani va san’at turi sifatida integratsiyalab o‘qitishga doir quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: milliy va umuminsoniy qadriyatlarning pedagogik talqini, ta’limning insonparvarlashuvi sharoitida o‘quvchilarning bilish faoliyatiga motivatsion-qadriyatli munosabat tadqiq etish, pedagogik qadriyatlarni o‘quvchi shaxsini shakllantirishdagi imkoniyatini hisobga olgan holda, ma’naviy, milliy, siyosiy, huquqiy, oilaviy, mehnat, umummadaniy, umuminsoniy va badiiy-estetik shakllariga alohida e’tibor qaratish kabi.

**Tadqiqotning maqsadi** ixtisoslashtirilgan maktablarda zamonaviy ta’limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash va takomillashtirishga doir metodik taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

pedagogik qadriyatlarni shakllantirish muammosining pedagogik-psixologik adabiyotlarda o‘rganilishi va pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

ixtisoslashtirilgan maktablarda pedagogik qadriyatlar asosida zamonaviy ta’limiy yondashuvlarni rivojlantirishning zarurati, pedagogik komponentlari, imkoniyatlarini va ilmiy-metodologik asoslarini aniqlash;

ixtisoslashtirilgan maktablarda zamonaviy ta’limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida rivojlantirish mazmuni va mezonlarini takomillashtirish;

ixtisoslashtirilgan maktablarda pedagogik qadriyatlar asosida zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni o'zbek tili va adabiyoti o'qitish metodikasi misolida rivojlantirishning funksional modelini ishlab chiqish;

ixtisoslashtirilgan maktablarda zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida o'zbek tili va adabiyoti fani misolida rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida ixtisoslashtirilgan maktablarda pedagogik qadriyatlar asosida zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni o'zbek tili va adabiyoti fani misolida rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Farg'ona, Toshkent viloyati, Guliston shahridagi ixtisoslashtirilgan maktablarining 418 nafar respondent-o'quvchilar va ularning ota-onalari jalb qilindi.

**Tadqiqotning predmetini** ixtisoslashtirilgan maktablarda pedagogik qadriyatlar asosida zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni o'zbek tili va adabiyoti fani misolida rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirishning mazmuni

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda adabiyotlarni o'rganish va qiyosiy tahlil qilish, sotsiometrik (anketa, intervyu, suhbat), maxsus psixologik-pedagogik metodikalar, pedagogik eksperiment, natijalarni matematik-statistik tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ixtisoslashtirilgan maktablarda zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni shakllantirishning nazariy aspektlari, pedagogik komponentlari va ilmiy-metodologik asoslari jahon ta'lim amaliyoti standartlarini fakultativ, aksiologik va deontologik fanlarning o'quv dasturi mazmuniga pedagogik qadriyatlar asosida zamonaviy shaxsni shakllantirish algoritmi orqali implementatsiya qilish asosida aniqlashtirilgan;

zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida shakllantirishning mazmuni, tarkibi va me'yoriy talablarini optimallashtirish hamda samaradorligini oshirish mexanizmlari pedagogik OTMlari bilan integratsion ta'minot dasturini ixtisoslashtirilgan maktablar o'quv dasturlariga moslashtirish, dunyo ta'lim makonida kuzatilayotgan globallashtirish, raqamlashuv, integratsiyalashuv kabi konseptual jarayonlarni milliy ta'lim dasturlariga o'zaro akademik almashinuvni joriy etish orqali konvertatsiyalash asosida takomillashtirilgan;

ixtisoslashtirilgan maktablarda zamonaviy ta'limiy yondashuvlar (Soft Skills, 4 K, STEM, STEAM, PISA, SAT)ni pedagogik qadriyatlar asosida shakllantirish modeli zamonaviy pedagogik faoliyati (moderator, fasilitator, tyutor, mentor)da pedagogik qadriyatlarga asoslangan ta'limiy loyihalar ("selfstyd", "qadriyatlar shajarasi", "Intuitsiya mashg'uloti", "5+") ni dars va darsdan tashqari jarayonlarni samarali tashkil etishning pedagogik bosqichlari (motivatsion, kognitiv, operatsion-texnologik, reflektiv-baholash)ga integratsiyalashda o'quvchi portfoliosi va sotsial media diagnostikasi kabi vositalari asosida takomillashtirilgan;

ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida zamonaviy ta'limiy yondashuvlar (Soft Skills, 4K, STEM, STEAM, PISA, SAT dasturi)ni rivojlantirishda aniq maqsadga asoslanuvchi shaxsga yo'naltirilgan pragmatik o'quv muhiti talablariga mos keluvchi, pedagogik qadriyatlarni rivojlantirish trayektoriyasi(integratsion, individual, simbiotik, sinergetik faoliyatlar)ni belgilovchi, pedagogik qadriyatlar ekotizmini shakllantiruvchi tezkor mushohadali axborot almashishga o'rgatuvchi mantiqiy, tanqidiy keyslarni ijtimoiy vaziyatlarda modellashtirish va qayta aloqali faoliyatda tezkor diagnostik munosabatda qo'llashga o'rgatuvchi metodik ishlanmalar ishlab chiqilgan;

ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan zamonaviy talablar o'quvchilar bilan ta'limiy faoliyatni samarali tashkil etishga yo'naltirilgan muammoli, rivojlantiruvchi, teskari ta'lim, loyihalash, kouching, MIMM, o'quvchi portfoliosi kabi metodik tavsiyalar tizimi o'zbek tili va adabiyoti fanining (individual, variativ, mobil, intensiv) imitatsion o'qitish shakllariga, ergonomik talablarga muvofiq tizimli qo'llash, integratsiya muhitida adaptivlashtirish asosida takomillashtirilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

“Boshlang'ich ta'limda STEAM” nomli darslik nashr ettirilgan;

Ixtisoslashtirilgan maktablarda zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlarni shakllantirishga doir “Shaxsiy rivojlanish (Personal development)”, kouching mashg'ulotlari, trening dasturlari asosida metodik ta'minoti ishlab chiqilgan;

ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida shakllantirishga doir “selfstye”, “qadriyatlar shajarasi”, “Intuitsiya mashg'uloti”, 5+ mualliflik loyihalarining metodikasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan yondashuv va usullar ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, muammoni o'rganishda falsafiy, metodologik, pedagogik va psixologik yondashuvlarga tayanilganligi, tadqiqot maqsadi va vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi, tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor, shuningdek, sifat jihatidan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida shakllantirish muammosining pedagogik-psixologik adabiyotlarda o'rganilishi va ixtisoslashtirilgan maktablardagi o'quv-tarbiya jarayonlarining amaliyotdagi holatining tahlil qilinganligi, “qadriyat”, “hayotiy ko'nikma”, “zamonaviy yondashuv”, “o'quvchi burchi” kabi tushunchalar mazmun-mohiyatining ochib berilganligi, ixtisoslashtirilgan maktablarda

zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning aniqlashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'quvchilarda zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida shakllantirishga doir didaktik imkoniyatlarining yoritib berilganligi, zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida shakllantirish modeli va texnologiyasining takomillashtirilganligi, mazkur jarayon samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalarning ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida shakllantirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

ixtisoslashtirilgan maktablarda zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni shakllantirishning nazariy aspektlari, pedagogik komponentlari va ilmiy-metodologik asoslari jahon ta'lim amaliyoti standartlarini fakultativ, aksiologik va deontologik fanlarning o'quv dasturi mazmuniga pedagogik qadriyatlar asosida zamonaviy shaxsni shakllantirish algoritmi orqali implementatsiya qilishga doir amaliy taklif va tavsiyalar Termiz davlat universiteti ilmiy tadqiqot rejasining 617309-EPP-1-2020-1-EPPKA2-CBHE-JP raqamli "Central Asia - TRIGGER" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Termiz davlat universiteti 2023-yil 8-apreldagi 6/12-1171-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida shakllantirishning amaliy-metodik tizimini takomillashtirishga erishilgan;

zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida shakllantirishning mazmuni, tarkibi va me'yoriy talablarini optimallashtirish hamda samaradorligini oshirish mexanizmlari pedagogik OTMlari bilan integratsion ta'minot dasturini ixtisoslashtirilgan maktablar o'quv dasturlariga moslashtirish, dunyo ta'lim makonida kuzatilayotgan globallashuv, raqamlashuv, integratsiyalashuv kabi konseptual jarayonlarni milliy ta'lim dasturlariga o'zaro akademik almashinuvni joriy etish orqali konvertatsiyalash masalalariga doir amaliy taklif va tavsiyalar 60110500 - Boshlang'ich ta'lim mutaxassisligi uchun yaratilgan "Boshlang'ich ta'limda STEAM" nomli darslikda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-sonli buyrug'i, 537369-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida shakllantirishda adaptivligini hamda integratsiyon ta'minot dasturlarini tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

ixtisoslashtirilgan maktablarda zamonaviy ta'limiy yondashuvlar (Soft Skills, 4 K, STEM, STEAM, PISA, SAT)ni pedagogik qadriyatlar asosida shakllantirish modeli zamonaviy pedagogik faoliyati (moderator, fasilitator, tyutor, mentor)da qadriyatga asoslangan ta'limiy loyihalar ("selfstye", "qadriyatlar shajarasi", "Intuitsiya mashg'uloti", "5+") ni dars va darsdan tashqari jarayonlarni samarali tashkil etishning pedagogik bosqichlari (motivatsion, kognitiv, operatsion-texnologik, refleksiv-baholash)ga integratsiyalashda o'quvchi

portfoliosi va sotsial media diagnostikasi kabi vositalari asosida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filiali ilmiy tadqiqot rejasining A1-XT-0-92997 raqamli “Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg‘unligi asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari” mavzusidagi amaliy fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filiali 2023-yil 14-dekabrda 631-son ma’lumotnomasi). Natijada zamonaviy ta’limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida shakllantirishning metodik tizimini takomillashtirishga xizmat qilgan;

ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarida zamonaviy ta’limiy yondashuvlar (Soft Skills, 4K, STEM, STEAM, PISA, SAT dasturi)ni rivojlantirishda aniq maqsadga asoslanuvchi shaxsga yo‘naltirilgan pragmatik o‘quv muhiti talablariga mos keluvchi, pedagogik qadriyatlarni rivojlantirish trayektoriyasi(integratsion, individual, simbiotik, sinergetik faoliyatlar)ni belgilovchi, pedagogik qadriyatlar ekotizmini shakllantiruvchi tezkor mushohadali axborot almashishga o‘rgatuvchi mantiqiy, tanqidiy keyslarni ijtimoiy vaziyatlarda modellashtirish va qayta aloqali faoliyatda tezkor diagnostik munosabatda qo‘llashga oid ishlanmalar, ilmiy-metodik tavsiyalari va takliflaridan Jizzax politexnika instituti ilmiy tadqiqot rejasining OT-F1-049 raqamli “Talabalarga assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” mavzusidagi amaliy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Jizzax politexnika institutining 2024-yil 16-fevraldagi 03-445-436-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, zamonaviy ta’limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy-ta’limiy loyihalarni dars va darsdan tashqari jarayonlarni samarali tashkil etishning pedagogik bosqichlarini aniqlashtirish va amaliy-metodik tizimini takomillashtirishga erishilgan.

ta’lim mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar o‘quvchilar bilan ta’limiy faoliyatni samarali tashkil etishga yo‘naltirilgan muammoli, rivojlantiruvchi, teskari ta’lim, loyihalash, kouching, MIMM, o‘quvchi portfoliosi kabi metodik tavsiyalar tizimi o‘zbek tili va adabiyoti fanining (individual, variativ, mobil, intensiv) imitatsion o‘qitish shakllariga, ergonomik talablarga muvofiq tizimli qo‘llash, integratsiya muhitida adaptivlashtirish doir amaliy taklif va tavsiyalar 60110500 - Boshlang‘ich ta’lim mutaxassisligi uchun yaratilgan “Boshlang‘ich ta’limda STEAM” nomli darslikda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-sonli buyrug‘i, 537369-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy ta’limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida shakllantirishda adaptivligini hamda integratsiyon ta’minot dasturlarini tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish, 1 ta darslik, 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta monografiya, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, jumladan, 13 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat bo'lib, asosiy matn 228 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti aniqlangan, shuningdek, tadqiqot ishining fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Ixtisoslashtirilgan maktablarda zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida umumiy o'rta ta'lim tizimidagi mavjud muammolar tasnifi, ixtisoslashtirilgan maktablarda zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida rivojlantirish – ijtimoiy metodik zarurati, ixtisoslashtirilgan maktablar tasnifi va o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan.

Zamonaviy jamiyatni o'z sohasining yetuk mutaxassisi, kasbiy malakasi yuqori, boy tajriba va mahoratga ega, islohotlarni qabul qila oladigan va amalga oshiradigan kadrlargina barpo etadi. Shunday ekan, ta'limning asosiy bo'g'ini bo'lgan umumiy o'rta ta'lim bosqichini davrning mazkur talabini inobatga olgan holda tashkil etish, o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishda o'quv jarayonini ilg'or xorijiy tajribalar asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim tizimiga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish hamda xalqaro standartlar asosida isloh qilishni ijtimoiy zarurati ortib bormoqda.

Zamonaviy maktab ta'limidan o'quvchi bilimlarini o'z hayotida mustaqil tarzda qo'llay olishi, nostandart vaziyatlarda duch keladigan muammolarga tez va to'g'ri qaror qilishga tayyorlashni talab etilmoqda. Ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar, ya'ni PISA, PIRLS, TIMMS kabi XBD ham maktab o'quvchilarining olgan bilimlarini nostandart vaziyatlarda qo'llay olishi, muammoli topshiriqlarga mustaqil tarzda yechim topa olish qobiliyatlarini rivojlantirishni tadqiq qiladi, tahlillarni amalga oshiradi va baholaydi.

Zamonaviy maktablardan o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tashkil etish talab etilmoqda. Bizningcha, o'quvchilarning kreativligi quyidagi bosqichlarni amalga oshirish bilan belgilanadi:

- yangi bilimlarni o'zlashtirish;
- amalda qo'llay olish;

- o'rgangan bilimlarini tushunish, uni kimgadir o'rgata olish;
- o'z bilimlariga tayanib o'rganilayotgan fan yuzasidan ijobiy samara beradigan yangi bilimlarni o'rganish;
- muqobil yangiliklar yaratish.

Dissertatsiyada “o'quv jarayoni”, “zamonaviy yondashuvlar”, “kreativ fikrlash”, “nostandart fikrlash”, pedagogik qadriyat kabi tushunchalarga aniqliklar kiritilgan, bu borada mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning fikrlariga nisbatan muallifning munosabati bayon qilingan.

Tadqiqotda bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim tizimidagi mavjud muammolar sifatida quyidagilar keltirilgan:

1. O'quv dasturi va mavjud darsliklarni o'rganishga o'quvchilar shaxsiy tashabbusning yo'qligi.

2. O'quvchilar soni ko'p bo'lgan sinflarda o'qitish jarayonining samaradorligi va har bir o'quvchiga individual e'tibor berishning metodik ta'minotining sustligi.

3. O'qituvchilarning zamonaviy yondashuvlarga muvofiq kasbiy tayyorgarligining yetarli emasligi.

4. O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini real vaziyatlarda qo'llay olmasligi, o'quv jarayonida amaliyotga yo'naltirish yetarli darajada tashkil etilmaganligi.

5. O'quv jarayonida o'quvchilarga shaxsiy tashabbus ko'rsatishga, fikrlarini ifodalash, o'z ichki qobiliyatini namoyon qilishning cheklanganligi.

6. O'quv jarayonida yuqori darajadagi innovatsion texnologiyalardan to'g'ri foydalanishning metodik tizimi samarali yo'lga qo'yilmaganligi.

7. O'quvchilar o'zining qiziqishi va qobiliyatiga ko'ra fanlarni tanlamasligi, ya'ni o'quvchilar shaxsiy qobiliyatlariga mos kelmaydigan fanlarni o'zlashtirishga majbur qilinishi.

8. Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilar fan o'qituvchilarini ixtiyoriy tarzda tanlamasligi, o'quvchilarning tanlov huquqlariga e'tibor berilmasligi.

9. Darsliklarning tez-tez yangilanishi, murakkabligi va ularda o'quvchiga tushunilishi qiyin bo'lgan ilmiy faktlarning berilishi.

10. O'quvchilar bilimining turli darajada ekanligi.

11. O'quvchilar qiziqishi, o'zlashtirishi va bilish darajasiga ko'ra tabaqalashgan sinflarga taqsimlanmasligi.

12. O'quvchilarning darsliklar bilani to'liq ta'minlanmaganligi.

13. Maktab darsliklarida berilgan audio, video formatdagi ma'lumotlar bilan o'quvchilar o'z vaqtida xabardor emasligi.


14. Raqamli ta'limning metodik imkoniyatlaridan foydalanmaslik.

Umumiy o'rta ta'limdagi muammolarni o'rganish jarayonida bu muammolarni ichki va tashqi muammolarga ajratgan holda tarkiblandi. Maktab jamoasidan tashqarida ya'ni tashqi tomonlar ishtirokida bevosita aralashuvda hal bo'ladigan masalalar tashqi omillar guruhidagi muammolarni keltirib chiqargan bo'lsa, maktab jamoasi ichida, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi yoki maktab rahbariyati va o'qituvchilar jamoasi o'rtasida o'z yechimini topadigan, ichki omillar asosida yuzaga kelgan muammolarga guruhlandi. Tadqiqotda ushbu

muammolarning kelib chiqishi, sabablari, oqibatlari va ularning yechimi bo'yicha konsrtuktiv takliflar ishlab chiqilgan.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida taxsil olayotgan iqtidorli o'quvchilarni kashf etish, ularning salohiyatini yanada oshiruvchi samarali tizimni yaratish,

**Ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatining asosiy vazifalari va kutiladigan natijalar**



**1-rasm. Prezident maktabi faoliyatining asosiy vazifalari va kutiladigan natijalar**

o'quvchilarning o'z qobiliyati va salohiyatlarini to'liq namoyon qiluvchi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash hamda mamlakatimizda ilm fan taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shuvchi, xalqimiz manfaatlarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi professional mutaxassislar tayyorlash maqsadida umumiy o'rta ta'lim tizimini tabaqalashtirish zarurati ijtimoiy-metodik ehtiyojga aylandi.



O'quvchilarning iqtidori, bilish darajasi, qobiliyati, iste'dodiga ko'ra ixtisoslashtirilgan, chuqurlashtirilgan tarzda tabaqalashgan tartibda o'qitish ta'lim samaradorligini oshiruvchi mezon bo'lib, bu tizim o'quvchilarning o'zini o'zi rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarini oshirish, iste'dodlarini va qobiliyatlari ustida ishlash, yangi avlod kadrlarining xalqaro mehnat bozoriga raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradi. O'quvchilar bilish darajasi, qiziqishi va qobiliyatiga mos keluvchi ixtisosliklarda ta'lim olishi ularning o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni oshiradi. Ixtisoslashtirilgan va chuqurlashtirilgan ta'lim tizimi o'quvchilarni muvaffaqiyatga erishish va o'zlarining potensialini maksimal darajada rivojlantirishga yordam beradi.

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar bugungi kunda o'zbek ta'limi taraqqiyotida zamonaviy va innovatsion maktab sifatida namoyon bo'lmoqda. Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning tashkil etilishi:

- o'quvchilar uchun ta'limiy yutuqlarga erishishga, olingan bilim va ko'nikmalar asosida iqtisodiy va sotsial rivojlanishga muvaffaqiyatli tayyorlarlaydi;

- o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalar va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlardan foydalanishga katta e'tibor beriladi. Bu, o'quvchilarning yangi texnologiyalar bilan tanishishlari, jamoaviy o'rganish orqali o'zini o'zi rivojlantirishga imkoniyat yaratadi;

- o'quvchilarga mustaqil loyihalar ustida ishlash, ijodiy faoliyatni o'rganish va rivojlantirish imkoniyatini beradi, ularda loyihalarni boshqarish, innovatsiyalar yaratish, kollaborativlik bilan bog'liq ko'nikmalar shakllantiriladi;

- o'quvchilar tanlagan sohalar bo'yicha o'zlarining qiziqishlari, o'zlashtirishiga mos keladigan bilimlar olishadi. Bunday maktablarda o'quvchilarga aniq va tabiiy fanlar, texnologiya, moliya, san'at, meditsina va boshqa sohalarda mutaxassislik fanlarini chuqur o'rganish imkoniyati beriladi. (1-rasm).


Ixtisoslashtirilgan maktablarida yo'lga qo'lgan ta'lim tizimi o'quvchilarida yigirma birinchi asr ko'nikmalari shakllantirish imkonini beradi. Bu ko'nikmlarning asosi o'quvchilarni tushunish, tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish, xulosalash, yaratish kabi fikrlash operatsiyalarini tizimli va bosqichli tarzda amalga oshirishga o'rgatadi. Mazkur fikrlash operatsiyalari ketma-ket va bosqichma-bosqich tarzda amalga oshirilishi natijasida o'quvchilarda xalqaro standartlarga raqobatbardosh bo'la oladigan kommunikativ-muloqatchanlik, kritik-tanqidiy fikrlash, kreativ-yaratuvchilik va kollaborativ-hamkorlikda ishlash ko'nikmlari shakllanadi. Bu ko'nikmar xalqaro mezon sifatida qabul qilingan bo'lib, "4 K" ko'nikmalari deb nomlanadi (2-rasm).

"4K" ko'nikmalariga ega o'quvchini tayyorlashda xalqaro pedagogik tajribalarda quyidagi vazifalarni amalga oshirish tavsiya etilgan:

- 1) iqtidorli, izlanuvchan, daxldorlik hissi va mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan o'quvchini tayyorlash tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida metodik faoliyatni isloh qilish;

- 2) har bir o'quvchining salohiyati va qobiliyatiga muvofiq, individual faoliyatga asoslangan amaliy, variativ hamda interaktiv rejalarni ishlab chiqish.

O'quvchi iqtidori va qobiliyatini namoyon etishda mantiqiy-tanqidiylik asosida fikrlarini ifodalashi va muammolarni hal qilishda o'z farazini ilgari suradi. Bu jarayon olgan bilimlardan tez va to'g'ri qaror qabul qilishni talab qiladi.



2-rasm. “4 K” modeli

Dissertatsiyada prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning o'ziga xos jihatlari, o'quvchilar uchun yaratilgan ta'limiy shart-sharoitlar va pedagogik imkoniyatlar tahlilga tortilgan. Ular umumlashtirilganda o'quvchi-yoshlarning iqtidor xususiyatlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, ularda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish va kelajakda ularning salohiyatidan jamiyat manfaati yo'lida foydalanish nazarda tutilganligini ko'rish mumkin.

Dissertatsiyaning **“Zamonaviy yondashuvlar asosida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida milliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan zamonaviy yondashuvlarning metodik imkoniyatlari, ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchilariga qo'yiladigan zamonaviy pedagogik talablar, ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish metodikasi, ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirishda o'zbek tili va adabiyoti fanining integratsiyalash usullarining afzalliklari bayon etilgan.

STEM, STEAM, PISA, SAT kabi zamonaviy ta'limiy yondashuvlar asosida o'qitish o'quvchilarga yangi bilimlarga ega bo'lish, chet tillarida muloqot qilish, turli madaniyatlar va adabiyotlarni o'rganish, global muammolar bo'yicha tanqidiy mulohazalar bildirish imkoniyatini oshiradi. Xalqaro standartlar asosida ta'lim olish o'quvchilarning dunyoqarashni kengaytirishini ta'minlaydi. Zamonaviy ta'limiy yondashuvlar o'quvchilarda izlanuvchan, kreativ, analitik va muhokama qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu, ularning yangi bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqishini oshirishga va o'zlarini globallashtirish muhitida muvaffaqiyatli his qilish imkonini beradi.

Milliy ta'lim tizimi o'quvchilarni globallashtirish muhitiga tayyorlash, yangi

bilimlarni maqsadli o'rganish va nostandart muammolarga yechim topish ko'nikmlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'limiy yondashuvlar o'quvchilarni o'z fikrlarini ifoda qilishga va mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida STEM, STEAM, PISA, SAT kabi zamonaviy ta'limiy yondashuvlar pedagogik qadriyatlar asosida shakllantirish globallashuv jarayonida turli axborot hurujlaridan saqlanishga, milliy qadriyatlarga sadoqatli yoshlarni tarbiyalashga, o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashning didaktik-metodik imkoniyatni taqdim etadi. Ixtisoslashtirilgan maktablarda pedagogik qadriyatlar asosida tashkil etilgan darslar rivojlangan mamlakatlar ta'limi tajribasida ishlab chiqilgan xalqaro standartlarga asoslangan holda o'quvchilarda milliylikni saqlashga va globallashuv jarayonida ommaviy madaniyat ta'siriga tushib qolmaslikka, jamoada hamkorlikni tushunishga va qo'llab-quvvatlashga, ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.

Har bir jamiyatning taraqqiyoti millat yoshlarini milliy ruhda tarbiyalash, ularni milliy qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy hayot, turmush tarziga qay darajada samarali tayyorlanishiga bog'liq. Shu sababli asrlar davomida har bir millat, xalq o'z milliy qadriyatlari negizida yosh avlod tarbiyasini tashkil etishga oid qarashlarni shakllantirib kelgan. Bir millat va elat uchun qadrlil bo'lgan odatlar, an'analar va qarashlarni hurmat qilish, qadrlash ta'lim tizimida, o'quv jarayonining didaktik imkoniyatlari asosida shakllantiriladi, metodik vositalar yordamida o'rgatiladi.

Insonning o'zini o'zi hurmat qilishi, o'z or-nomusi hamda obro'sini saqlab qolishiga imkon beradi. Bu esa unga milliy o'zligini anglash orqali vujudga keladigan jarayonlarda shakllanib boradi. Insonning shaxsiy qadr-qimmatini milliy qadriyatlardan kelib chiqadigan ijtimoiy xususiyatlardan bo'lib, uni yuksaklikka olib boruvchi oliyjanob bir kuchdir. Qadriyatlar insonning ijtimoiy erkinligini va ma'naviy pokligini ta'minlovchi bir buyuk manbadir. Jamiyat taraqqiyoti talablarida inson qadriyati milliy qadriyatlardan kelib chiqishiga ko'ra ijtimoiy mazmun mohiyatga egadir. Qadriyat insonning ta'limi, tarbiyasi va kundalik mehnat faoliyati jarayonida shakllanadi. Pedagogik qadriyat o'quvchida insoniylikni shakllantiradi, demokratik va diplomatik munosabatlar qurishda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni real vaziyatlarda qo'llay olishga o'rgatadi.

Pedagogik qadriyat tarbiya va intizom asosida o'quv jarayonida shakllanadigan, shaxsning ijtimoiy munosabatlarni ma'naviy-axloqiy me'yorlar, xulq-atvori va yurish turishini tartibga solib turadigan ko'nikmalar tizimidir. Buning ta'siri natijasida insonning nafaqat karakteri, balki uning hayotiy faoliyati ham yangicha mazmun kasb etib, boyib boradi.

Pedagogik qadriyat har bir o'quvchiga milliy o'zlikni anglash, o'zbekona qadriyatlar asosida vatanga sadoqat ruhida ta'lim olish natijasida shaxsiy rivojlanish imkonini beradi. Bu esa, ularning zamonaviy potentsiallarini oshirish bilan bir qatorda bag'rikeng, mehribon, samimiy, adolatli, to'g'ri so'z, sadoqatli, mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalanishiga xizmat qiladi. Milliy ta'lim konsepsiyasi pedagogik qadriyatlar asosida vatanparvar, intellektual jihatdan

yetuk va ijtimoiy faollikni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan didaktik prinsiplar, metodik tavsiyalarga asoslangan milliy ta'lim modeli asosida shakllanadi.

Milliy ta'lim konsepsiyasi sharqona ta'lim va tarbiya mazmunidan iborat bo'lib, birinchi navbatda o'quvchi tarbiyasi, odob-axloqqa xos sifatlar yetakchilik qilishiga e'tibor qaratiladi. Insoniyatni shaxs sifatida yuksalishi avvalo uni ma'naviyati, ilmi va hunari, tanlagan kasbi bilan davlat rivojiga, jamiyat a'zolari, oilasi va mahallasiga beradigan hissasi va yordami hamda ijtimoiy faolligi bilan belgilanadi.

Millatlar va elatlarning betakror tarixiy merosi, san'ati, adabiyoti ularning madaniy qadriyatlari va axloqiy fazilatlarining ajralmas qismidir. Ular xalqning o'ziga xosligini saqlash, yosh avlodni tarbiyalash, shaxsning ijtimoiylashuvini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o'ziga xos vazifani bajaradi. Bu qadriyatlar orqali turli hodisa va vaziyatlar, yangi paydo bo'lgan faoliyat turlari va an'analar baholanadi. Yosh avlodning hayotiy maqsadlari, "zamon qahramoni" haqidagi tasavvurlari ham pedagogik qadriyatlarni metodik asoslari natijasida shakllanadi. Insoniyat o'zining kundalik mehnati va zehni bilan yaratilgan sun'iy narsalar olamida yashaydi. Biz yaratayotgan ana shu moddiy va ma'naviy boyliklar dunyodagi insoniy qadriyatlar majmuasidir. Pedagogik qadriyatlar milliy, madaniy qadriyatlarni o'quvchida shakllantirishga, uning faol ijtimoiylashuviga, ta'lim oluvchilarning xatti-harakatlarini tartibga solishga va to'g'ri yo'naltirishga yordam beradi. Bunday noyob boshqaruvning samaradorligi xalqimizning milliy g'oyasi bilan bog'liq milliy qadriyatlar tizimidan xabardor pedagogning metodik mahorati va oilada beriladigan tarbiyaning integratsiyasiga bog'liq.

Mustahkam ma'naviy immunitetni, ya'ni tug'ilib o'sgan maskanni qadrlash, ta'lim bergan o'qituvchini hurmat qilish, vatan ravnaqiga o'z hissasini qo'shish, jamiyatda ijtimoiy faol shaxs bo'lish, burch, daxldorlik hissi, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish ta'lim jarayonida pedagogik qadriyatlar asosida shakllantiriladi. Bizningcha, pedagogik qadriyatlar mohiyatini tushuntirish va targ'ib qilish ta'limiy-ijtimoiy loyihalar asosida amalga oshiriladi. Mazkur metodik faoliyat o'quvchini o'zini o'zi refleksiv talqin qilishga o'rgatadi. Ta'limiy-ijtimoiy loyihalar asosida amalga oshiriladigan metodik faoliyat natijasida o'quvchida: "jamo'a a'zolari menga nima qilib berdi emas, men jamoamga, oilamga, vatanimga nima qildim, jamo'a a'zolariga qanday nafim tegdi" mazmunidagi ijtimoiy burch, daxldorlik hissi, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kabi ijtimoiylashuv ko'nikmalari shakllanadi. Pedagogik qadriyatlar o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini, insoniylik fazilatlarini rivojlantiradi. O'z fikrini erkin ifoda eta oladigan, yuksak marralarni zabt eta oladigan yangi avlod pedagogik qadriyatga asoslangan ta'lim ekotizmida shakllanib boradi.

Axborot makonida turli ko'rinishdagi ma'lumotlarni diagnostik tahlil qilish, o'qib tushunish, tinglab tushunish, tanqidiy-mantiqiylik asosida idrok etish hamda pedagogik qadriyatlarga asoslangan ta'lim ekotizmi filologiya fanlarini o'qitish jarayonida shakllantiriladi. Pedagogik qadriyatlar asosida filologiya fanlarni o'qitish o'quvchilarda doimiy ravishda yangi bilimlarni izlash, saralash,

intellektual qobiliyatlarini to'liq rivojlantirish imkonini beradi. Filologiya fanlarini o'qitishda til, kommunikativ va madaniy kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor vazifalar sifatida ko'rsatilgan. Filologiya fanlarining integratsiyasi shaxslarni, madaniyatlarni va xalqlarni bog'laydi. Globallashtirilgan dunyoda yashayotganimizni hisobga olsak, filologiya fanlarining vazifasi dunyo haqidagi g'oyalarni jahon hamjamiyatiga yetkazish uchun turli matnlarni o'qish va sharhlashga o'rgatishdek dolzarb masalalarga yechim beradi. Bugungi kunda filologiya pedagogika, gumanitar va ijtimoiy fanlar uchun metodologik asosga aylanib bormoqda. Filologiya, eng avvalo, talqin qiluvchi, tushuntiruvchi, o'rgatuvchi, targ'ib qiluvchi fan sifatida jamiyat hayotining so'z va matnlarni talab qiladigan barcha sohalariga singib ketganligi sababli eng muhim ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etmoqda.

Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilari ona tili va adabiyot, rus tili va adabiyoti, ingliz tili va adabiyoti kabi filologik darslarda berilgan badiiy va axborot matnlarini diagnostik o'rganishi, muhokama qilishi va o'z fikrini asoslash orqali taqdim etilgan materialni qanchalik chuqur va samarali o'zlashtirganliklarini namoyish etadilar. Filologik darslarda o'quvchilar tanqidiy, mantiqiy, ijodiy fikrlashga yo'naltirilgan matnlar bilan ishlash, amaliy topshiriqlarni muhokama qilish, sharhlash va baholash imkonini beradigan metodik faoliyatni amalga oshiradilar. Filologik darslarda ta'lim jarayonining mazmuni va muloqotning eng muhim qismini - shaxslararo, ijtimoiy, madaniy va zamonaviy jamiyat uchun zarur bo'lgan milliy va umummadaniy qadriyatlar aks etgan ma'lumotlar tashkil etadi. Xalqaro maydonda faoliyat olib borishni maqsad qilgan jamiyatning yangi avlodida gumanistik g'oyalar va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi zamonaviy filologik ta'limning aksiologik tarkibiy qismi til o'rganuvchi darslar jarayonida amalga oshiriladi.

Dars jarayonini asosini tashkil etuvchi tomonlar ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchilar bo'lsa, o'qituvchi darsni tashkil etuvchi va boshqaruvchi, tushuntiruvchi, o'quvchini yo'naltiruvchi kabi faoliyatlarni amalga oshiradi. Zamonaviy maktablar sifatida e'tirof etilayotgan ixtisoslashtirilgan maktablarning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi saralab olingan iqtidorli o'quvchilarga ta'lim berishda, hamda yangi ta'limiy yutuqlarga erishishda o'quvchining rivojlanish strategiyasini pedagogik qadriyatlar asosida hamkorlikda ishlab chiqishga mas'uldirlar. Pedagogik qadriyatlar asosida ishlab chiqiladigan o'quvchining rivojlanish strategiyasi ularda quyidagi ko'nikmalarni shakllantiradi:

- Jamoada to'g'ri muloqot qilish;
- Hamkorlikda ishlash;
- emotsiya va stressni boshqara olish;
- liderlik qobiliyati;
- vaqtni to'g'ri taqsimlash va boshqarish;
- tizimli va strategik fikrlarash;
- muzokara olib borish;
- konstruktiv tandiqidiy fikrlash;
- muammolarni hal qilish;
- kreativlik;

tez va to'g'ri qaror qabul qila olish.

Butunjahon ta'lim kengashi tomonidan ma'qullangan ushbu talablar ro'yxatini keyinchalik N.B.Shumakova davom ettirib, iqtidorli o'quvchi shaxsining rivojlanishi, qobiliyatli va iste'dodli o'quvchilar uchun dasturlar quyidagicha bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tadi:

– o'quvchilar tanlagan mavzularni, milliy va umummadaniy qadriyatlarni chuqur o'rganishi uchun imkoniyat taqdim etish;

– o'qishda, ya'ni o'quvchining o'zi idora qiladigan ta'limda mustaqillikni ta'minlash;

– tadqiqot ishlarining usullari va ko'nikmalarini rivojlantirish;

– ijodiy, tanqidiy va abstrakt–mantiqiy tafakkurni rivojlantirish;

– odatiy stereotiplar va umum qabul qilingan qarashlarni parchalovchi yangi g'oyalarni ilgari surishni rag'batlantirish va rivojlantirish;

– o'zini o'zi anglash va o'zini o'zi tushunish, shaxsiy qobiliyatlarining o'ziga xosligini anglash va boshqa odamlarning individual xususiyatlarini tushunishni rivojlantirishga ko'maklashish;

– o'quvchilarni turli-tuman mezonlar yordamida ishning natijalarini baholashga o'rgatish, ishni o'quvchilarning o'zlari baholashlarini rag'batlantirishi zarur.<sup>5</sup>

Ayni paytda iqtidorli o'quvchilar bilan ishlaydigan o'qituvchilarga ham shunga mos talablar mavjud bo'lib, bunday o'qituvchilarning pedagogik faoliyati quyidagi tushunchalar bilan tavsiflanadi:

1. Moderator – dars va darsdan tashqari jarayonlarda o'quvchilar faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi va nazorat qiladi. Mustaqil fikrlash, mustaqil ishlash, bilish faoliyatini faollashtirish jarayonini faol tashkil etadi;

2. Fasilitator – dars jarayonida pozitiv va emotsional ijobiy ta'lim olish muhitini yaratadi. O'quvchilar bilan ishlashda hamda “comfort learning” muhitini yaratuvchi, interaktiv dars o'tish usullarini aniqlovchi va rivojlantiruvchi vazifalarni bajaradi.

3. Tyutor – o'quvchini tinglovchi, tushunuvchi va qo'llab quvvatlovchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchilarning qiziqishlari asosida ta'lim olishga yo'naltiradi, berilgan topshiriqlarni va loyiha ishini bajarish jarayonida maslahatchi, kuzatuvchi, tinglovchi, yordamchi faoliyatlarini amalga oshiradi.

4. Mentor – berilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o'rgatuvchi, yetaklovchi, yo'naltiruvchi vazifalarni bajaradi.

Bugungi kunda umumjahon pedagogikasida keng qo'llanilib kelinayotgan va yuqori ijobiy samara berayotgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar quyidagilardir:

individual yondashuv;

kompetensiyaviy yondashuv;

---

<sup>5</sup> Clark, B. (2002). *Growing up Gifted* (6th ed.). Columbus, OH: Merrill/Prentice-Hall. Davis, G., & Rimm, S. (2004). *Education of the gifted and talented* (5th ed.). Boston: Allyn & Bacon. Karnes, F.A., & Bean, S.M. (2001). *Methods and Materials for Teaching the Gifted*. Waco, TX: Prufrock Press.

akmeologik yondashuv.

Bu yondashuvlar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish milliy ta'lim tizimi va milliy o'zbek xalq pedagogikasi oldida turgan ustivor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur zamonaviy yondashuvlar pedagogikada metodologik ahamiyatga ega bo'lib, ularda o'quvchi shaxsini har tomonlama takomillashtirish, ularga individual yondashish, nazariy bilimlarning amaliy ahamiyatini oshirish, o'quvchilarda muayyan kompetentlikni shakllantirish metodlari va ularning iqtidorlarini yuzaga chiqarish bilan bog'liq muhim metodik faoliyatga o'ziga xos innovasion yondashishni nazarda tutiladi.

Bugungi dinamik o'zgarishlar davrida "pedagogik qadriyatlarga asoslangan ta'lim" tizimini joriy qilish hamda murakkablashib borayotgan globallashtirish jarayonida o'sib kelayotgan yosh avlod ongiga qadriyatlar, axloqiy tamoyillar, insoniy fazilatlarni singdirish zarurati tobora ortib bormoqda. Ushbu ta'lim mazmuni halollik, hurmat, hamdardlik, daxldorlik hissi, burch va mas'uliyat kabi muhim axloqiy va umuninsoniy qadriyatlarga asoslanadi. Pedagogik qadriyatlarga asoslangan ta'limni ta'minlashda asosiy rol o'qituvchilar va ota-onalarga to'g'ri keladi. Ular nafaqat milliy tarbiyachilar, balki o'quvchilarning shaxsiy xarakterini shakllantirishda yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi axloqiy maslahatchilardir. Pedagogik qadriyatlarga asoslangan ta'lim barqaror ta'lim tamoyili asosida ishlaydi. O'z-o'zini rivojlantirish barqaror ta'limning muhim elementidir. Bu o'quvchilarning o'zlarini hurmat qilishlari, o'z qadr-qimmatlarini qadrlashlari, ijtimoiy faol va namunali shaxs bo'lishga intilishlari g'oyasi atrofida birlashadi.

Ixtisoslashtirilgan maktablarda pedagogik qadriyatlarga asoslangan ta'lim tizimi natijasida o'quvchilar fuqarolik mas'uliyatini bilishi va faol fuqarolik ko'nikmalarini shakllanishi mamlakatimiz taraqqiyotini belgilab beradi. Tashabbus, maqsad uchun harakat qilish kabi amaliy tajribalar o'quvchilarda loyihalash faoliyatiga asoslangan metodikalar, kouch suhbatlar, treninglar, muammoli keyslar bilan ishlash jarayonida shakllanadi.

O'quvchi shaxsini rivojlantirishda pedagogik qadriyatlarga asoslangan metodik yondashuvlar tahliliga to'xtalib o'tmoqchimiz:

- ijtimoiy munosabatlar jarayonida shaxsning o'zini o'zi anglashi bilan bog'liq bo'lgan metodik yondashuvlar (bilim olish va o'rganishning ahamiyati, bilimning ta'siri, o'z-o'zini anglash va boshqarish, shaxsiy fazilatlar va boshqalar);

- muloqot ehtiyojlarini qondiradigan va uning ko'lamini kengaytiradigan metodik yondashuvlar (o'quvchilar, oila a'zolari, ustozlar bilan muloqot, jamoaga g'amxo'rlik va qo'llab-quvvatlash, axloqiy qadriyatlar almashinuvi va boshqalar);

- shaxsning ijodiy individualligini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar (qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyatlari, jahon madaniyatiga qo'shilish, sevimli mashg'ulotlar bilan shug'ullanish, doimiy o'z-o'zini takomillashtirish va boshqalar);

- ta'lim olish va o'rganishda o'zini o'zi anglash imkonini beruvchi metodik yondashuvlar (ta'lim olishning ijobiy tomoni, qiziqishlari asosida ta'lim olishni o'rganish).

Umuman, biz o'quvchilarning ehtiyojlarini yaxshiroq qondiradigan, qiziqishlarini qo'llab quvvatlaydigan, ularning muvaffaqiyatiga yo'naltiradigan, globallashtirish talablariga raqobatbardosh hamda kelajagini xavfsiz bo'lishini ta'minlaydigan yangi ta'lim davrida turibmiz. Pedagogik qadriyatlarga asoslangan ta'lim muhitida o'quvchilarda nazariy, amaliy, hamda faol ijtimoiylashuv jarayoniga xizmat qiladigan insoniy fazilatlarni rivojlantiradilar. Pedagogik qadriyatlarni o'quvchilar maktabning rasmiy o'quv dasturi, tengdoshlari va o'qituvchilari bilan o'zaro munosabatlar orqali o'rganadilar.

Dissertatsiyaning 3-bobi **“Ixtisoslashtirilgan maktablarda zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida amalga oshirish mexanizmlari”** deb nomlanib, mazkur bob ixtisoslashtirilgan maktablar samaradorligini oshirishda pedagogik oliy ta'lim muassasalarining roli, ixtisoslashtirilgan maktablarda zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlarga asosida shakllantirishning funksional modeli, zamonaviy ta'limiy yondashuvlar asosida qadriyatlarga asoslangan ta'lim muhitini yaratish usullari tadqiqiga bag'ishlangan.

Ixtisoslashtirilgan maktablarda ta'lim sifatini oshirish, ixtisoslashtirilgan maktablar ko'lamini kengaytirish, mazkur maktablar milliy ta'lim tizimining lokomotivi bo'lishishiga erishish, xalqaro standartlarga javob beradigan o'quv-metodik adabiyotlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, amaliyotga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tashkil etish, ixtisoslashtirilgan maktablarda salohiyatli va raqobatbardosh kadrlar bilan ta'minlash, o'qituvchilarning malakasini oshirish, xalqaro sertifikatlashtirish tizimini joriy etish kabi masalalar pedagogika oliy ta'lim muassasalari yangicha ishlash uslubini tanlashiga asos bo'ldi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari milliy ta'lim tizimida pedagog kadrlarni tayyorlovchi-ta'minotchi funksiyasini bajarish bilan bir qatorda, o'quvchilarning ma'naviy, intellektual va jismoniy rivojlanishiga ko'maklashuvchi, ularning o'zlarini mustahkamlash va ma'naviyatini oshirishga yordam beruvchi, pedagogik qadriyatlarini o'rgatish jarayonlari va usullarini tashkil etish va takomillashtirishga yo'naltirilgan faoliyatlarni amalga oshiradilar.

Pedagogik oliy ta'lim muassasalari xududiy ixtisoslashtirilgan maktablarga ta'lim klasteri negizida barcha umumta'lim fanlaridan mutaxassislar bilan ta'minlash bilan bir qatorda ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarish jarayonida ham faoliyat olib boradi kadrlarni ham tayyorlab beradi.

Ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyati samaradorligini oshirishda oliy ta'lim muassasalarining bu boradagi muhim rolini e'tirof etish zarur. Pedagogik oliy o'quv yurtlari ixtisoslashtirilgan maktablar bilan simbiotik, sinergetik munosabatlarni o'rnatish orqali ta'lim va metodikani integratsiyasi adabtiyligini oshirishda pedagogik tajriba va strategik rejalarini amalga oshiradi. Simbiotik munosabatlarning asosiy filosofiyasi o'qituvchilar va o'quvchilar orasida hamkorlik tizimi yaratish, ta'lim jarayonini samarali o'tkazish, taraqqiyotni oshirish va faollikni boyitishga qaratilgan.



Simbiotik munosabatlarda ta'lim subyektlari: o'qituvchilar, o'quvchilar, rahbarlar va jamoa a'zolari o'rtasidagi birlikda ishlash prinsipiga asoslangan hamkorlik tizimi amalga oshiriladi. O'quv faoliyatida ta'lim tashkilotchilari, o'qituvchilar, o'quvchilar bilan o'zaro samimiy hamkorlik muhiti yaratiladi. Simbiotik munosabatlarda pedagogik qadriyatlar dominant bo'lib, ta'lim jarayonlarida olingan diagnostik ma'lumotlarning tahliliga ko'ra o'quvchilar uchun qulay va samarali o'quv rejalarini tuzadilar.

Ixtisoslashtirilgan maktablar va pedagogika oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik asosida ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilarining ta'limiy ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan, shaxsga yo'naltirilgan metodologiyalar, integratsiyon o'qitish uslublari va moslashtirilgan ta'limiy loyihalar ishlab chiqilib, pedagogik sinovdan o'tkazilmoqda. Pedagogika oliy o'quv yurtlari ixtisoslashtirilgan maktablardagi o'qituvchilar bilan hamkorlikda pedagogik kompetentlikni oshirish, intensiv o'quv dasturlari, shaxsga yo'naltirilgan interaktiv ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish, diagnostik tahlillash, korreksiyalash natijasida xorij tajribasiga raqobatbardosh metodik ishlanmalar yaratiladi. Pedagogik OTM tomonidan integratsion, individual yondashuv asosida amalga oshiriladigan faoliyatlar:

- pedagogik oliy ta'lim muassasalari nafaqat bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda balki o'qituvchilar malakasi, mahorati va kompetentligini oshirish uchun bosqichli tayyorlov kurslarini tashkil etish;

- sohalarda yangiliklar va pedagogik islohotlarga ochiqlikni shakllantirish;

- xalqaro andozalarga raqobatbardosh o'quv dasturlarini yaratish;

- pedagogik muammolarni yechishda o'qitish usullarini va metodlarini vorisiylik va aksiologik yondashuvlar asosida amalga oshirish;

- o'quvchilar va o'qituvchilar bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar va ta'limiy jarayonlarda pedagogik konsullik faoliyatini amalga oshirish.

Pedagogik qadriyat umummadaniy, milliy tajribani avloddan avlodga yetkazish uchun amalga oshiriladi. Tegishli fanlarni, ayniqsa filologiya fanlarini o'rganishni integratsiyalashuvi tasodifiy jarayon emas, balki ularning mazmuni va protsessual xususiyatlarini ko'rib chiqishdir. Barcha voqealik hamda tabiiy va ijtimoiy jarayonlar mazmuni o'zbek tili va adabiyoti fani yordamida shakllanadigan o'qib tushunish, tinglab tushunish kabi ko'nikmalar natijasida idrok qilinadi. Bu jihatlarning barchasi filologiya o'qituvchisiga va ularni tayyorlashga alohida talablar qo'yadi. Maktablarda fanlararo integratsiyani amalga oshirish filologiya fanlarini, ya'ni o'zbek, rus, ingliz tillarini integratsiyalashuvini ta'minlash tamoyiliga asoslangan ta'lim muhitini yaratishga bo'lgan talabni oshiradi. Bu zamonaviy ta'limda integratsiya jarayonlarini kuchaytirish va umumiy maktab tizimining an'anaviy fanga yo'naltirilgan yondashuvi o'rtasidagi ziddiyatlarni ko'rsatadi; shuningdek, o'qituvchi va pedagoglarning integratsiyalashgan o'qitishni amalga oshirish sharoitida o'z kasbiy faoliyatida integratsiya nazariyasi va metodologiyasidan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi. O'quvchilarda aniq, tabiiy va gumanitar fanlar asosida o'zlashtiriladigan ilmiy bilimlar integratsiyasining rivojlanishi ta'lim sohasidagi ta'lim integratsiyasining

rivojlanish mantig'i bilan belgilanadi va hozirgi bosqichda ilmiy bilimlarni integratsiyalashuv tendensiyalarining faol namoyon bo'lmoqda.

Filologiya fanlarini integratsiyalash tilshunoslik fanini ta'lim metodologiyalari bilan uyg'unlashtirishni o'z ichiga oladi. Til va adabiyot komponentlarini pedagogik asoslarga kiritish orqali o'quvchilar ikkala fanni ham chuqurroq tushunadilar. Ushbu fanlararo yondashuv o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Filologiya fanlarining integratsiyalashuvi o'quvchilar uchun ko'plab imtiyozlarni beradi. Bu ularga tilning madaniy jihatlarini qadrlash imkonini beradi, muloqot ko'nikmalarini yaxshilaydi va matn ma'lumotlarini sharhlash va tahlil qilish qobiliyatini oshiradi. Bundan tashqari, ushbu yaxlit yondashuv an'anaviy fan chegaralaridan tashqariga chiqadigan zamonaviy ta'lim tajribasini qo'llab-quvvatlaydi.

Filologiya fanlarini integratsiyalashgan holda pedagoglar o'quvchilarning pedagogik qadriyatlarini turli yo'llar bilan oshirishlari mumkin. Tilni o'rganish kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi, adabiy tahlil esa empatiya va hissiy idrokni rivojlantiradi. Ushbu integratsiya o'quvchilarning intellektual va shaxsiy o'sishini ta'minlaydigan keng qamrovli ta'lim tajribasiga yo'l ochadi.

Pedagogik qadriyatlarga asoslangan ta'lim o'quvchida insoniy fazilatlarga asoslangan hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga katta e'tibor beradi. O'quvchi nafaqat bilim jihatdan ustun bo'lishi, balki mazmunli va axloqiy hayot kechirish uchun zarur bo'lgan qadriyatlar va ko'nikmalarga ega bo'lishi pedagogik qadriyat mezonidir. Yuqoridagi fikrlar asosida "Ixtisoslashtirilgan maktablarda zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida shakllantirish modeli" ishlab chiqildi (3-rasm). Mazkur model 4 ta qismdan iborat bo'lib, ular: maqsad, mazmun, amalga oshirish algoritmi va natija bloklaridan iborat.

Modelning maqsad blokida ta'lim tizimidagi zamonaviy ta'limiy yondashuvlar va pedagogik qadriyatlarning ahamiyati, imkoniyati, afzalliklari va dolzarbligiga ko'ra mualliflik ta'rifi berilgan:

Xalqaro baholash dasturlari – ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yilayotgan xalqaro ta'lim standartlari bo'lib: PIRLS, PISA, TIMMS, TALIS ta'lim oluvchi, ta'lim beruvchi hamda ta'limni tashkil etuvchilarning faoliyatini diagnostik tahlil qiladi o'quvchi bilimni baholovchi va sertifikatlovchi xalqaro dasturlar SAT, IELTS.

Globalashuv va raqamlashuv davri taqozosi bilan shakllangan hamda 21-asr ko'nikmalari sifatida ta'kidalanayotgan Soft Skills-hayotiy ko'nikmalarni pedagogik qadriyatlar asosida shakllantirishga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Pedagogik qadriyatlarga asoslangan ta'lim-shaxsning jamiyatda ongli



**3-rasm. Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida shakllantirish modeli**

munosabatda bo'lishi, kasbiy, ijodiy, ma'naviy-axloqiy va shaxsning jismoniy imkoniyatlarini shakllantirishga hamda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlarini bilan uyg'un holda quradigan ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishga qaratilgan ta'lim tizimidir. Tadqiqot modelining 3-komponentida "Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida xalqaro yondashuvlar va milliy pedagogik qadriyatlar asosida zamonaviy shaxsni shakllantirish algoritmi" berilgan bo'lib:

"Pedagogik qadriyatlarni shakllantirish ekotizmi" dasturi – "Iqtidorli talabalar minbari. Chempion bilan bir kun. Vazirning vaqt taqsimoti. Investor bilan bir kun. Besh yildan keyin men. 5+ faktori. Mening kelajak strategiyam. Intuitsiya mashqi" kabi pedagogik qadriyatlarni shakllantirishga doir ta'limiy loyihalarning metodik tizimi frontal, juftlikda, jamoaviy tarzda teskari ta'lim, kouch, trening, MIMM metodikalari asosida ishlab chiqilgan. "Pedagogik qadriyatlarni shakllantirish ekotizmi" dasturida berilgan ta'limiy loyihalarni ona tili va adabiyot, tarbiya hamda O'zbekiston tarix fani o'qituvchisi hamkorlikda dars va darsdan tashqari vaziyatlarda amalga oshirishi tavsiya etiladi. Pedagogik qadriyatlarni shakllantirishga doir ta'limiy loyihalarni kouch muloqot va amaliy treninglar asosida o'tkazish o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalar va insoniy fazilatlarni tushunishga yordam beradi. O'quvchilarga beriladigan ta'limiy loyihalar raqamli portfolio, sotsial diagnostika yordamida baholashga erishiladi.

"Pedagogik qadriyatlarni shakllantirish ekotizmi" dasturi ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida vatanparvarlik, o'zlikni anglash, daxldorlik hissi, burch va mas'uliyat kabi ko'nikmalarni shakllantirish asosida ma'naviy immunitetga ega zamonaviy shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **"Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida shakllantirish samaradorligi"** deb nomlangan to'rtinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish va o'tkazish dasturi keltirilgan, natijalar tahlili yoritilgan va ularning samaradorligi asoslangan.

Qadriyatlar avvalo axloqiy me'yorlarda o'z ifodasini topadi, "chunki qadriyatlarning avloddan-avlodga o'tishi har doim sivilizatsiya funksiyasi bo'lib kelgan". Ularni o'rganish va qo'llash ta'lim taraqqiyotining rivojlanishini ochib beradi hamda ta'limda umuminsoniylikni mustahkamlaydi.

Bir necha asrlik pedagogik va didaktik merosimizda bugungi davr uchun zarur va foydali g'oya va qarashlar, ta'limning shakl, usul va ishlab chiqarish mavjud bo'lib, yosh avlodga berilayotgan ta'lim, insonning bir necha yillar davomida bugungi kunning mahsuli bo'lmay, ming yillik meros va qadriyatlar natijasida vujudga kelgan. meros hamda qadriyat bir-biriga uzviy bog'liq bo'lishiga qaramay, yagona emasligi tadqiqotchilar tomonidan ko'p marotaba ta'kidlangan. Ya'ni, har qanday meros qadriyat bo'la olmaydi, meros taraqqiyot uchun zarur omil bo'lganda qadriyat darajasiga ko'tarilishi mumkin. Didaktik nazariyalar o'quv jarayonini rivojlantirishga qaratilgan milliy-umuminsoniy ta'lim paradigmatlari, ta'limning samarali usullari, vosita va metodlari bo'lib, davr

talabiga xamohang sifatli ta'lim yo'nalishi oid maqsadli munosabatlarni o'zida jamlaydi. Didaktik qadriyatlar fan-texnika va texnologiya taraqqiyotiga monand o'zgarib, davr talabi va ijtimoiy munosabatlar (davlat-jamiyat-ta'lim) ta'sirida yangilanib boradi. Didaktik manbalar va ulardan pedagogik jarayonlarda ishlab chiqarish jarayonlari ta'lim mazmuni, jarayonlar, pedagog-talaba tizimidagi o'zaro munosabatlarni tashkil etishga asoslanadi.

Tadqiqotni ishi jarayonida amalga oshirilgan tajriba sinovga ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida zamonaviy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida shakllantirish, shaxsga yo'naltirilgan zamonaviy yondashuvlar asosida pedagogik diagnostik korreksiyalash faoliyatini amalga oshirishga oid nazariy va metodikalarni samaradorligini aniqlash maqsadida bir-biriga muqobil bo'lgan ikkita guruh shakllantirildi. Tajriba va nazorat guruhlariga jalb etilgan o'quvchilar soni tegishli ravishda belgilandi. Tajriba-sinov ishlari tanlab olingan 3 ta maktabda (jami 418 nafar o'quvchilar bilan) o'tkazildi. Tajriba-sinov maydonlari sifatida quyidagi maktablar belgilandi (2-jadval):

## 2-jadval

### Tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan o'quvchilar soni

№	Umumiy o'rta ta'lim maktablari	O'quvchilar soni
1	Oltiariq tuman ixtisoslashtirilgan maktab	168
2	Yangiyo'l shahar ixtisoslashtirilgan maktab-internat	124
3	Guliston shahar ixtisoslashtirilgan maktab	126

Tadqiqot muammosini yechishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlari quyidagi tashkiliy vazifalarni hal etish asosida olib borildi:

tajriba-sinov maydonlarini belgilash;

tajriba-sinov ishlarini olib borishga mas'ul bo'lgan o'qituvchilar guruhini shakllantirish;

tajriba va nazorat guruhlarini belgilash;

tajriba jarayoniga jalb etilgan o'qituvchilarni sinov ishlarining mohiyati bilan tanishtirish;

Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida shakllantrishga oid maxsus metodikani ishlab chiqish.

Tajriba sinov ishimizda ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida pedagogik qadriyatlarga asoslangan ta'limiy ko'nikmalar: mehr-muruvvat, mas'uliyat, ishonch, burch, o'z-o'zini boshqarish, kattalarni hurmat qilish, kichiklarni e'zozlash hamda zamonaviy ko'nikma sifatida e'tirof etilayotgan "4 K", ya'ni komunikativ, kritik, kreativ, komunikativ, kollaborativ ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida diagnostik muhokama va munozara mashg'ulotlari o'tkazildi. Ushbu mashg'ulot isbot va hukmga tayanadi. Uning asosida aniq narsa, hodisalar haqida hukm chiqarish va to'g'ri qaror qabul qilish, o'z-o'zini boshqarish, o'z faoliyatiga javobgarlik hissi, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kabi hayotiy ko'nikmalar shakllantiriladi.

Diagnostik muhokama mashg'ulotlariga quyidagi mavzular tanlab olindi:

Pand-nasihat mavzusida diagnostik muhokama uchun quyidagi yo'naltiruvchi savollar berildi: pand-nasihat nima? odamlar uchun kerakmi? Siz kimlarning pand-nasihatlariga quloq solasiz?

Vaqtni boshqarish mavzusida diagnostik muhokama uchun quyidagi yo'naltiruvchi savollar berildi: vaqtingizni mustaqil nazorat qila olasizmi? sizni vaqtingizni kimlar nazorat qiladi? Vaqtingizni qancha qismini oila davrasida o'tkazasiz?

Vatanga xizmat qilish va vatanparlik mavzusida diagnostik muhokama uchun quyidagi yo'naltiruvchi savollar berildi: vatan tushunchasiga tarif bering? Siz uchun vatanparlik nima va u qanday namoyon qilinadi? Sizning vatan oldidagi burchingiz nima? Vatanimga xizmat qilaman degan jumlagacha shaxiy fikrlaringizni yozing.

Berilgan mavzu bo'yicha fikr bildirish hamda hukmlarni ma'qul yoki noma'qulligini isbotlash uchun zarur adabiyotlar va internet materiallari bilan tanishish va fikrlarni ular asosida isbotlash topshirig'i berildi. Tajriba guruhida o'tkazilgan mazkur mashg'ulotda o'quvchilar fikrini yozma ijodiy matn tarzda taqim etdilar.

Qadriyat ta'limi nafaqat o'quvchi yoki maktabda qo'llanilmaydi, balki oilada, biznesda, sportda va barcha inson omili bilan yaratiladigan va amalga oshiriladigan vaziyatlarda yuzaga kelishi kerak.

Pedagogik qadriyatlarga asoslangan ta'lim o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantiradi. Empatiya, tenglik, hammaga hurmat, sog'likka g'amxo'rlik qilish tanqidiy fikrlash kabilar hayotiy ko'nikmalar sifatida yuritiladi. Ushbu fikrlar asosida belgilangan tajriba guruhlarida quyidagi maqsadda tajriba sinov ishlari olib borildi:

-Ixtisoslashtirilgan maktab muhitini o'rganish;

-maktab o'quvchilarining rivojlanish portfoliosini shakllantirish;

-shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarning samaradorligini aniqlash;

- pedagogik qadriyatlarni shakllantirish;

-zamonaviy ta'limiy yondashuvlarga moslashuvchanligi va raqobatbardoshligini oshirish;

Ushbu maqsadni amalga oshirishda tajriba-sinov ishlari dasturi ishlab chiqildi.


Hayotiy qadriyatlarga munosabat diagnostikasi aniqlash maqsadida respondentlar bilan "Intuitsiya mashg'uloti" (2-rasm); O'quvchilarda zamonaviy yondashuv sifatida baholanayotgan Soft Skills – hayotiy ko'nikmalarni pedagogik qadriyatlarga asoslangan ta'lim asosida shakllanganligini aniqlash maqsadida "Axloqiy motivatsiya diagnostika testi" o'tkazildi (1-jadval).

1-jadval.

#### Axloqiy motivatsiya diagnostikasi

T/r	Shakllanganlik daraja nomi	5-6 sinf	7-8 sinf	10-11 sinf
1.	yuqori darajada axloqiy motivatsiyaga egalik	86,00	56,00	22,00

2.	o'rta darajada axloqiy motivatsiyaga egalik	20,00	24,00	45,00
3.	past darajadagi axloqiy motivatsiyaga egalik	4,00	20,00	33,00



**2-rasm. Hayotiy qadriyatlarning shakllanganligini aniqlashga qaratilgan diagnostik so'rovnoma natijalari**

-jadval

**Tajriba yakunida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida shakllanganlik darajasi**

Guruhlar	O'quvchilar soni	O'zlashtirish darajalari sonda va foizda			
		"5"	"4"	"3"	"2"
Tajriba guruhida	209	63 30,1	77 36,9	43 20,6	26 12,4
Nazorat guruhida	209	33 15,8	48 23	56 26,8	72 34,4

Ushbu jadvaldan tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari va o'quvchilar sonini mos ravishda  $X_i n_i$  lar va shu kabi nazorat guruhidagisini esa  $Y_j n_j$  lar orqali belgilab olib, quyidagi statistik guruhlangan variatsion qatorlarga ega bo'lamiz, shuningdek, "5" bahoni 4 ball bilan, "4" bahoni 3 ball bilan, "3" bahoni 2 ball bilan va "2" bahoni 1 ball bilan belgilaymiz.

Tajriba guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari:


$$\begin{cases} X_i & 4; & 3; & 2; & 1; \\ n_i & 63; & 77; & 43; & 66; \end{cases}$$

$$n = \sum_{i=1}^4 n_i = 209$$

Nazorat guruhidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

$$\begin{cases} Y_i & 4; & 3; & 2; & 1; \\ m_i & 33; & 48; & 56; & 72; \end{cases} \quad m = \sum_{i=1}^4 m_i = 209$$

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagramma quyidagicha ko'rinishni oladi:



3.4-rasm. Tajriba yakunida

Statistik tahlilni tajriba va nazorat guruhidagi natijalar bo'yicha o'rtacha o'zlashtirishlarini hisoblab, qiyoslashdan boshlaymiz. O'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari quyidagi natijalarni berdi:

$$\bar{X} = \sum_{i=1}^{n=4} P_i X_i = 0,30 \cdot 4 + 0,37 \cdot 3 + 0,21 \cdot 2 + 0,12 \cdot 1 = 1,2 + 1,11 + 0,42 + 0,12 = 2,85$$

$$\text{Foizda} \quad \bar{X}\% = \frac{2,85}{4} \cdot 100\% = 71,25\%$$

$$\bar{Y} = \sum_{i=1}^{n=4} q_j Y_j = 0,16 \cdot 4 + 0,23 \cdot 3 + 0,27 \cdot 2 + 0,34 \cdot 1 = 0,64 + 0,69 + 0,54 + 0,34 = 2,21$$

$$\text{Foizda} \quad \bar{Y}\% = \frac{2,21}{4} \cdot 100\% = 55,25\%$$

Demak, tajriba va nazorat guruhida o'quvchilarning o'rtacha o'zlashtirishi  $(71,25 - 55,25)\% = 16\%$  ga oshgan. Bu esa o'z navbatida  $\frac{71,25\%}{55,25\%} = 1,29$  barobar ortiqqligini anglatadi. Bunda ya'ni tajribadan keyin samaradorlikka erishilgan.

Bu bilan dissertatsiya maqsadining to'g'ri qo'yilganligi, ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy asoslarning to'g'riligi, uni amaliyotga joriy etish borasida taklif etilgan tavsiyalarning asosli ekanligi, tajriba-sinov jarayonida qo'llangan metod va usullarning samarali ekanligi dalillandi.

### Xulosalar

**Ixtisoslashtirilgan maktablarda zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida rivojlantirish** bo'yicha quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Ixtisoslashtirilgan ta'lim tizimi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshiradi. Bu ularning ilmiy, amaliy va ijtimoiy bilimlar sohasida rivojlanishiga



imkon beradi. O'quvchilar tanlagan ixtisosliklarga mos keluvchi sohalarda keng bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishadi, bu esa ularni kelgusida malakali mutaxassis bo'lish imkonini taqdim etadi.

2. Ixtisoslashtirilgan ta'lim tizimi o'quvchilarning qobiliyatlari va iste'dodlarini yanada rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilarning yoshi, iqtidori, bilish darajasi, qobiliyati va iste'dodi bo'yicha ixtisoslashtirilgan tarzda o'qitilishi mamlakat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tabaqalashgan ta'lim tizimi yoshlarning intellektual va ma'naviy salohiyatlarini oshirishga, mamlakatning ilm-fan sohasini rivojlantirishda yangi tashabbus va g'oyalar bilan xalqaro maydonga chiqishga imkon beradi.

3. Pedagogik qariyatlarga asoslangan zamonaviy ta'lim natijasida quyidagilarga erishiladi:

- ma'lum soha va ixtisoslikka oid bilimlarni real vaziyatlarda qo'llay olish o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantiradi;

- o'quvchilarda mantiqiy, tanqidiy fikrlash, ijodiy va nostandart tafakkur tarzi, tez va to'g'ri qaror qabul qilish instinkti va ma'naviy immunitetni paydo qiladi;

- o'qish va tushunish, farqlash, xulosalash ko'nikmalari shakllanadi, bilim olish o'rganish o'quvchining ichki ehtiyojga aylanishi natijasida havaskor o'quvchidan ma'suliyatni o'z zimmasiga oladigan o'quvchi shaxsiyati shakllanadi;

- o'quvchilarda daxldorlik hissi, sadoqat, vatanparvarlik, ijtimoiy burch kabi tushunchalar hayotiy ko'nikmaga aylantiriladi.

4. Zamonaviy maktab o'quvchilari kasbiy va shaxsiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda, olgan bilimlarni real hayotda qo'llashda ijtimoiy burch, mas'uliyat, daxldorlik hissi va insoniy fazilatlar - pedagogik qadriyatlar asosida hayotga tatbiq etishga dars va darsdan tashqari jarayonlarda didaktik-metodik faoliyat olib borish natijasida erishiladi.

5. Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida shakllantirish uzluksiz ta'lim lokomativligini ta'minlaydi:

- Oltin fond vakillarini tayyorlash;

- Milliy ta'lim samaradorligini oshirish;

- Xalqaro ta'limiy yondashuvlarga raqobatbardosh bo'lish;

- milliy g'ururni mustahkamlash;

- daxldorlik hissinı shakllantirish;

- ma'naviy immunitetni hosil qilish.

6. Zamonaviy ta'limiy yondashuvlar (Soft Skills, 4 K, STEAM, PISA) asosida dars va darsdan tashqari jarayonlarni pedagogik qadriyatlar asosida shakllantirishning pedagogik bosqichlarini o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik faoliyatini tanlov fanlari: Shaxsiy saviya (Personal development), Zamonaviy yondashuv (Global Perspectives) mazmuniga singdirish hamda shaxsga yo'naltirilgan metodikalar asosida amalga oshirish ijobiy samara beradi;

7. Zamonaviy yondashuvlarga asoslangan pedagogik qadriyatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan darslarini tashkil etishda quyidagi jihatlarni inobatga olish muhim:

- dars jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlarini bildirishga hamda hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishning individual faoliyatga asoslangan metod va usullarini aniqlash;

- o'quvchilarning ichki imkoniyatlari va ijtimoiy ko'nikmalarini inobatga olish hamda o'z "men"ini namoyon qilishga bo'lgan intilishini rag'batlantirish;

- o'rganishdagi qiziqishlarini hisobga olish;

- o'quvchilarni aktivlashtiruvchi ta'limiy va didaktik strategiyalarni hamda o'quv ko'nikmalarini maqsadli shakllantirish;

- har bir o'quvchida mehnatsevarlik, fidoyilik, bag'rikenglik, mehr-saxovat, halollik, mas'uliyat, o'ziga ishonch, jasorat, sodiqlik, ijtimoiy moslashuvchanlikni shakllantiruvchi amaliy ta'limiy loyihalarni qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratish.

8. O'quvchilardagi pedagogik qadriyatlarni shartli ravishda quyidagicha belgiladik:

Hayotiy qadriyatlar tamoyillari (yashash, sog'liq, daxldorlik);

madaniy qadriyatlar tamoyillari (moddiy – o'quv qurollari, uy-joy, kiyim-kechak; ijtimoiy-siyosiy - erkinlik, xavfsizlik, adolat);

ma'naviy qadriyatlar tamoyillari (bilim, san'at, ta'lim). Belgilangan pedagogik qadriyatdan o'zini ta'minlovchi va predmet mazmuniga ko'ra farq qiluvchi tamoyillarni ajratish mumkin:

O'zini-o'zi rivojlantirish tamoyillari - bu o'quvchining ijodiy tabiati, qiziqishi, qobiliyati, bilish darajasi, ijtimoiy ahamiyati, oilasi va vatani oldidagi mas'uliyati, o'zini rivojlantirish, jamoaga g'amxorlik, muhabbat qadriyatlari. Bunday tamoyillar o'qituvchi va o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

9. O'quvchi hayoti va faoliyatida maqsad qadriyati boshqa pedagogik qadriyat tizimida dominant aksiologik funksiyani bajaradi, chunki maqsadlar o'quvchi hayoti va faoliyatining asosiy mazmunini aks ettiradi. Pedagogik faoliyatning maqsadlari o'zini o'zi rivojlantirishiga, o'z-o'zini anglashiga, o'zini-o'zi takomillashtirishga va ehtiyojlar ierarxiyasida boshqalarning rivojlanishiga yordam beradigan ehtiyojlarga mos keladigan aniq motivlar bilan belgilaydi.

10. Pedagogik tajriba-sinov ishlarida to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish, qayta ishlash va baholash har qanday o'quv jarayonida bo'lgani kabi muhim ahamiyatga ega. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni samaradorligini aniqlash va olib borish bilan bir qatorda axborotni qayta ishlashga ham alohida e'tibor beriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, dalillarning yetarliligi, to'liqligi va ishonchliligi o'qituvchi, tadqiqotchi yoki psixologning tajribasidan muhimroqdir. yetarli, ishonchli dalillarsiz pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari ta'lim sifatini oshirish, samaradorlikni oshirish, o'quvchining har tomonlama rivojlanishiga ko'maklashishda foydali bo'lmaydi. Demak, pedagogik tajriba-sinov ishlarining eng hal qiluvchi bosqichi - olingan ma'lumotlarni qayta ishlashdir.

**Tadqiqot natijalari asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:**

Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida shakllantirish borasidagi tadqiqotlarni ko'paytirish;

Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida shakllantirish maqsadida pedagogik oliy ta'lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan maktablar o'quv rejasiga "Vatan tuyg'usi" va "Qadriyat" fanini kiritish;

Ixtisoslashtirilgan maktab o'quv dasturiga ona tili va adabiyot, O'zbekiston tarixi, tarbiya fanlariga ajratilgan soatlar taqsimotini oshirish;

Yoshlarda milliy o'zlik, daxldorlik hissi, vatanparvarlik, insoniylik tuyg'ularini shakllantirish va hayotiy ko'nikmaga aylanitish maqsadida davlat tashkilotlari va xususiy sektorlar tomonidan ta'lim-tarbiya-ishlab chiqarish-xizmat ko'rsatish sohalarini integratsiyalashuviga asoslangan ijtimoiy loyihalar, grandlarni yaratish va bu ishlanmalarga o'quvchi yoshlarni keng jalb etish;

Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida shakllantirish bilan bog'liq amalga oshiriladigan faoliyatni individuallashtirish, pedagogik diagnostik korreksiyalash, intensivlashtirish;

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tabaqalashtirilgan ta'lim strategiyasi asosida ta'lim berish bosqichma bosqich amalga oshirish.

**УЧЕНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ЧИРЧИКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ЧИРЧИКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**КУРБАНОВА МАФТУНА ФАХРИДДИНОВНА**

**РАЗВИТИЕ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПОДХОДОВ В  
СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ШКОЛАХ НА ОСНОВЕ  
ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ (на примере методики обучения  
узбекскому языку и литературе)**

**13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА  
ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

**Чирчик – 2024**

**Pedagogika fanlari doktori (DSc)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктор  
педагогических наук (DSc)**

**Contents of dissertation abstract of the doctor  
pedagogical sciences (DSc)**

**Qurbonova Maftuna Faxriddinovna**

Ixtisoslashtirilgan maktablarda zamonaviy ta'limiy yondashuvlarni pedagogik qadriyatlar asosida rivojlantirish (o'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi misolida).....

**Курбанова Мафтуна Фахриддиновна**

Развитие современных образовательных подходов в специализированных школах на основе педагогических ценностей (на примере методики преподавания узбекского языка и литературы).....

**Kurbanova Maftuna Fakhriddinovna**

Development of modern educational approaches at specialized schools based on pedagogical values (on the example of methods of teaching uzbek language and literature).....

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....

**Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.1.DSc/Ped848.**

Диссертация выполнена в Чирчикском государственном педагогическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Ученого совета ([cspi.uz/uz/ilmiy-kengash](http://cspi.uz/uz/ilmiy-kengash)) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный консультант:** **Ботирова Шахло Исамиддиновна**  
доктор педагогических наук, профессор

**Официальные  
оппоненты:** **Матчонов Сапа**  
доктор педагогических наук, профессор  
**Умурова Гузал Хотамовна**  
доктор филологических наук, профессор  
**Куронов Мухаммад**  
доктор педагогических наук, профессор

**Ведущая организация:** **Каршинский государственный университет**

Защита диссертации состоится «\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года в \_\_\_ часов на заседании Ученого совета по присуждению ученых степеней DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 при Чирчикском государственном педагогическом университете (адрес: 111720, Ташкентская область город Чирчик улица Амира Темура дом 104). Тел.: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45- 41; e-mail: [chdpu-kengash@umail.uz](mailto:chdpu-kengash@umail.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Чирчикского государственного педагогического университета (зарегистрирована за №\_\_\_\_. Адрес: 111720, Ташкентская область город Чирчик улица Амира Темура, дом 104). Тел.: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712- 45-41).

Автореферат диссертации разослан «\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года.  
(протокол реестра №\_\_\_\_\_ от \_\_\_\_\_ 2024 года).

**У.Н.Ходжамкулов**  
председатель Ученого совета по присуждению  
ученых степеней, д.п.н., доцент

**Ф. Т. Раджабов**  
учёный секретарь Ученого совета  
по присуждению ученых степеней,  
д.ф.г.н. (PhD), доцент

**В. Б. Файзиев**  
председатель научного семинара  
при Ученом совете по присуждению  
ученых степеней, д.б.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире в условиях модернизированного образования отдается приоритет современным образовательным подходам в развитии у учащихся навыков XXI века. Также, основываясь на международном образовательном опыте, широкое внедрение системы образования STEAM, направленной на формирование основных компетенций обучающихся на основе «4К» - коммуникативных, критических, креативных и коллаборативных навыков, создает основу для достижения высоких результатов в этом отношении. Личностно-ориентированный подход в развитии навыков «4К», включенных в требования международных оценочных программ, таких как PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, сегодня признан эффективным в развитых странах. В частности, методики по совершенствованию механизма развития у учащихся базовых компетенций, Soft Skills, навыков «4К», определению социальных факторов, влияющих на формирование этих компетенций, систематическому проведению педагогико-диагностической коррекционной деятельности, формированию индивидуально-интеллектуальных способностей учащихся реализуются на основе личностно-ориентированных подходов.

В мире проводится ряд научных исследований по разработке методического обеспечения и инновационных моделей формирования базовых компетенций, коммуникативных, критических, креативных, коллаборативных навыков на основе личностно-ориентированного подхода, определения педагогических ценностей. В частности, наряду с выявлением педагогических основ развития у учащихся базовых компетенций, коммуникативных, критических, креативных, коллаборативных навыков путем интеграции возможностей личностно-ориентированных и цифровых ресурсов современных образовательных подходов в педагогические ценности, также все большую актуальность приобретают представление методически-практического решения, разработка педагогических механизмов формирования базовых компетенций и современных навыков на основе педагогических ценностей, совершенствование методической системы развития современных навыков на основе аксеологического и деонтологического подходов. В то же время это создает необходимость разработки педагогических условий для системной организации образовательного процесса на основе личностно-ориентированного подхода, основанного на педагогических ценностях, в развитии у учащихся базовых компетенций и современных навыков в условиях инновационного образования.

В последние годы в нашей стране большое внимание уделяется всесторонней поддержке талантливых учащихся, развитию их внутренних способностей, базовых компетенций, современных навыков. «Выявление одаренных учащихся, создание комплексной системы по их обучению и

воспитанию с использованием передовых технологий в образовательном процессе, дальнейшая поддержка и поощрение талантливой молодежи, формирование духовно зрелого и интеллектуально развитого поколения»<sup>6</sup> является важным составляющим образовательных реформ, реализуемых в нашей стране. В связи с этим, с учетом индивидуально-психологических особенностей учащихся специализированных школ, признанных в нашей республике школами нового поколения, особую актуальность составляют развитие их внутренних способностей, базовых компетенций и современных навыков на основе педагогических ценностей, совершенствование методической системы внедрения в образовательный процесс моделей и технологий обучения, таких как SMART, comfort learning, self-study.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит реализации задач, определенных в указах Президента Республики Узбекистан ПУ-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», ПУ-6097 от 29 октября 2020 года "Об утверждении концепции развития науки до 2030 года", Постановлении ПП-4199 от 20 февраля 2019 года "О мерах по созданию президентских школ", Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 марта 2020 года № 141 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности творческих школ и специализированных школ», а также в других нормативно-правовых актах по данной деятельности.

**Связь исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Пути формирования и реализации системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информированного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** Среди ученых нашей республики в исследованиях Р.Сафаровой, У.Мусаева, Н.Ортикова, Н.М.Егамбердиевой, С.Т.Юлдашевой, Ш.З.Тайлановой, Д.Р.Салиховой, Б.Ходжаева, Н.И.Рахмоновой, Ж.Туленова, Ш.К.Мардонова исследуются содержание ценности и аксиологические подходы, необходимость ценности в воспитании учащегося, национальные и общечеловеческие ценности.<sup>7</sup> В частности, современные технологии обучения, личностно-ориентированное образование, современные педагогические подходы, проблема инновационных технологий в образовании исследуются Г.О.Эрназаровой, Л.Бакоевой, Ф.Юсуповой, М.Мирзаевой, Г.Хасановой, Ш.Нематовым,

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4199-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

<sup>7</sup> Қ.Назаров.Аксиология. Тошкент.Академия-2011, 20-21б; Имомназаров М.Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар.Тошкент.Шарк, 1998 – Б.131.; Ходжаев В.Х. "Pedagogik aksiologiya" o'quv qo'llanma. T. "Fan va texnologiya", 2011. - 156 bet.; Маврулов А. Маънавий баркамол инсон тарбияси. – Тошкент: "O'zbekiston", 2008. – Б. 11-12.; Қурунов М. Ўзбекистон умумтаълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари: пед. фан. докт. ...дис. – Тошкент, 1998. – Б. 363;



